

TARIX DARSLARIDA INTELLEKTUAL O'YINLI USULLARDAN FOYDALANISH

*Tojiboyev Munavvarjon No'monjonovich
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Farg'onan akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fani darslarida o'quvchilarni tariximizni bilish, vatanparvarligini yuksaltirishga, fanga yanada qiziqtirish, xotirasini mistahkamlash, qobiliyatini va jamoada ma'sulligini oshirish hamda ishtiyoqini yuksaltirish masalalariga e'tibor berilgan.

Kalit so'z: “Bilim ring testi”, rasmli test, solishtirma test, murakkab test, antonim, markazdagi guruh, tezkor javob, rag'bat, jarima.

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillardan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosat darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlарimiz qalbida ona-yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagagi “O'zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi farmonida ijtimoiy soha, xususan ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan. Hujjatda ta'lim muassalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta'lim muassasalarini qurish, ta'mirlash va kapital ta'mirlash barobarida ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va o'quv metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash nazarda tutilgan. Demak, bundan ko'rinish turibdiki, ta'limni rivojlantirish moddiy asoslari barqarorlashganligi, bunga monand ta'limning sifat darajasi, ma'naviy qiyofasi javob berishi hamda o'qituvchilarning bu jarayonda o'z bilim va ko'nikmalari bilan hissa qo'shishi yaqqol ko'rinish turibdi. Bu borada ta'lim muassasalarida pedagog o'qituvchilar o'z fanini rivoji va sifati uchun jonkuyar bo'lishi, o'z ustida ishlashi, zamon bilan hamnafas holatda so'nggi innovatsion texnologiyalardan foydalana olishi, eng asosiysi o'quvchilarni yetuk bilim olishiga, vatanparvarlik ruhida tarbiya olishiga har qachongidan ham ma'suldirlar.

Bizga ma'lumki, tarix fani ham qiziqarli, insonning jamiyatdagi faoliyatidagi saboq olishida bir omil bo'lishi bilan birgalikda, murakkab hamda ma'lumotlar va faktlarni xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bularni o'quvchilarga yanada qiziqarliroq va tushunarliroq bo'lishida turli dars usullaridan, yangi pedagogic texnologiyalardan

foydalanish maqsadga muvofiq. Shunday dars usullaridan biriga, xususan intellektual o‘yin usullaridan biriga to‘xtalmoqchiman.

“Bilim ring testi” usuli tarix fanini o‘qitishda, o‘quvchilarda xotira qobiliyatini kuchaytirishda va mavzuni biror bobini yoki bo‘limini mustahkamlashda katta yordam beradi. Bundan tashqari, ushbu usul orqali mavzuning e’tibordan chetda qolgan joylariga yoki ahamiyat berilmaydigan jumlariga hamda mavzuda berilgan rasmlar (undagi ma’lumotlar: sanasi, tuzilishi, hududi va hakoza) ga, shuningdek davrlarni, davlatlarda bo‘lib o‘tgan voqealarni solishtirishda o‘quvchilarini e’tiborini kengroq tortadi.

Testlardan namunalar:

1. Xorazmda safaviylarga qarshi kurashga kimlar boshchilik qilgan?

- A) yirik amaldorlar B) qo‘ng‘iroq so‘filari
C) harbiylar D) mahalliy aslzodalar

E’tibordan chetda qolgan savollardan biri bo‘lib, bu javobda hammasi ham to‘g‘ri javobga yaqin bo‘lishi mumkin. To ‘g‘ri javob: D

Rasmlarga oid test namunasi:

2. Zardushtiyalar kimga ta’zim qilganlar?

- A) Zardushtga B) kohinlarga C) quyoshga D) “Avesto” ga

Bunda javobni rasm orqali bilamiz, mavzuni matnida berilmagan. To ‘g‘ri javob:

C

3. Ko‘chmanchi turkiy qabilalar o‘troq turmushga o‘tishi boshlangan davrda bo‘lgan voqeani aniqlang.

- A) Daniyaliklar ingliz sohillariga qo‘sish tushirdilar.

B) Chingizzon vafot etgan.

C) Xitoyda ekin maydonlarining yarmi yirik zamindorlar qo‘liga o‘tgan.

D) Chex knyazlari qirol unvoniga ega bo‘lgan.

Birinchidan davrni topishimiz, keyin esa shu davrda qaysi davlat tarixidagi voqeaga mos tushadi. Davr XI asr oxiri To ‘g‘ri javob: D

4. Ortiqchasini toping?

- A) Qutayba zabit etishni boshlashi B) Ulug‘bek tamg‘a solig‘ini oshirishi

C) Mirxond tug‘ilishi D) Amir Temur markazlashgan davlat tuzishni boshlashi

Bu savolda o‘quvchini fikrlashga undaydi, to‘rtta javobdan uchtasi umumiylikka ega bo‘lib, bittasini chiqarib yuborish kerak. Bunda A, C, D javoblarida Balx shaxri ularni bog‘lab turadi, B javobda Balx shahrini aloqasi yo‘q. Agarda Abdulatif savdogarlarni o‘ziga qaratish uchun tamg‘a solig‘ini bekor qildi javobi bo‘lganda, bu albatta Balx shahriga doir bo‘lgan bo‘lar edi. To ‘g‘ri javob: B

5. Antonimning toping?

- A) Beruniy - Kopernik

- B) Pirmuhammad _ Xalil Sulton

C) Tug‘luq Temur - Amir Temur D) Hoshim ibn Hakim – Abu Muslim

Ushbu savol fanlar bilan aloqadorligi bo‘lib, xususan ona tili bilan bo‘gliq, ya’ni antonim qoidasini bilish kerak. *To ‘g‘ri javob: D*, chunki Hoshim ibn Hakim boshliq qo‘zg‘olonchilar oq kiyim, Abu Muslim harakatchilari esa qora kiyim kiyishgan.

6. Muhammad Rahimbiy qo‘shbegi bo‘lgandan 99 yil oldin tug‘ilgan shaxs o‘lganidan 100 yil keyin qo‘zg‘olon bo‘lgan hudud hokimi vafot etganda kim rasman xon bo‘lgan?

A) Abdullaxon II B) Abulfayzxon C) Shoxmurod D) Amir Haydar

Bu murakkab savollar jumlasiga kirib, bunda vaqt boshqa savollarga nisbatan ko‘proq berilishi mumkin. Buni sharhlasak, Muhammad Rahimbiy qo‘shbegi bo‘lishi 1743 yil, 99 yil oldin, ya’ni 1644 yil Mirzo Bedil tug‘iladi va uning vafoti 1721 –yil dan 100 yil keyin, 1821 –yil qo‘zg‘olon bo‘lgan hudud Miyonqol hokimi Iskandarxon vafot etganda (1583-yil) Abdullaxon II rasman xon bo‘ladi. *To ‘g‘ri javob: A*

“Bilim ring testi” usulida guruhlarga bo‘lingan holda tashkillanadi, ya’ni bu musobaqa tarzda doimiy davom etib boradi hamda har bir o‘yindan so‘ng ballar hisoblanadi. Bevosita o‘yin shartlariga to‘xtalamiz.

Guruhdagi yoki sinfdagi masalan 26 nafar o‘quvchi 4 guruhgaga 6 nafardan bo‘linadi. Har bir guruhgaga jamoa sardori saylanadi, ushbu o‘quvchi jamoadagi javoblarni berilishiga ma’sul, shu sababli guruh uning nomi bilan ataladi. Masalan, Abdullahokimov Javohir guruhi.

O‘tkazilish tartibi har haftada o‘tilgan darsliklar va ayni vaqtgacha o‘tib bo‘lingan mavzular bo‘yicha savollar tuziladi. Har bir o‘yinga markazda biror guruh o‘rin oladi, qolgan guruhralar bevosita qatnashib, ballar yig‘ib boradi, ya’ni markazdagi guruh javobni og‘zaki aytishsa, qolgan guruhralar javobni qog‘ozga yozgan holda yozma berishadi. Savollarga javob toppish vaqt – 1 minut.

O‘yini tartibi bo‘yicha avval variantlar o‘qiladi, hamma tayyor holda savol o‘qiladi. O‘yinni sharti bo‘yicha hatto savol o‘qilmasdan ham javob berishi mumkin, bunda albatta rag‘bat va jarima ballari mavjud.

Ballarni berish tartibi – markazdagi guruh to‘gri javob bersa – 2 ball, noto‘g‘ri javob berilsa, jarima sifatida o‘quvchilardan bir nafari shu o‘yin uchun jamoadan chetlashtiriladi.

Markazdagi guruh tezkor javob bersa, ya’ni savol o‘qib bo‘lishi bilanoq to‘gri javob bersa (bunda javob yozma shaklda beriladi, chunki qolgan guruhralar bilmasligi uchun) – 5 ball, noto‘g‘ri javob bersa, jarima sifatida o‘quvchilardan ikki nafari shu o‘yin uchun jamoadan chetlashtiriladi.

Markazdagi guruh yuqorida aytiganidek, savolni o‘qilmasdan yozma shaklda javob berishi ham mumkin. Bunda to‘g‘ri javob uchun – 10 ball, noto‘g‘ri javob bersa, jarima sifatida o‘quvchilardan uch nafari shu o‘yin uchun jamoadan chetlashtiriladi. Bunga misol tariqasida aytib o‘tsak, masalan, A) Toshkent B) Urganch C) Samarqand

D) Farg‘ona deb variantlar berildi, o‘quvchilar savol o‘qilmasadan fikrlashib, Toshkent variantini olishdi, izoh sifatida O‘zbekiston Respublikasining poytaxti faraziga to‘xtalishdi. Qaysidir ma’noda bu ham to‘g‘ri, lekin keyin hamma uchun savol o‘qilganda, Quyidagilardan qaysi hududda so‘nggi paleolit manzilgohi topilmagan? – deb berildi va bunda javob Urganch varianti bo‘ladi.

Qolgan jamoalarda ham ball yig‘ish tartibi bo‘lib, bular yuqorida aytganimizdek yozma shaklda beriladi,

To ‘gri javobga – 1 ball, noto ‘g‘ri javobga – (-1) ball;

Tezkor to ‘g‘ri javobga – 2 ball, noto ‘g‘ri javonga – (-2) ball;

Savol o‘qilmasdan to ‘g‘ri javobga – 5 ball, noto ‘g‘ri javobga – (-5) ball.

Markazdagi guruh imtiyozlari ham mavjud:

1) *Qolgan jamoalardan yordam so ‘rash;*

2) *Ikkita javob tanlash;*

3) *Telefon orqali biror ustoz yoki do ‘stlaridan yordam so ‘rash.*

Bundan tashqari, har musobaqada 20 ta savol o‘ynalib, oxirgi savolgacha jamoa vakillari yetib borsa - 20 ball, yetib borolmay o‘yin markaz uchun tugasa – (-20 ball) qo‘yiladi.

Ushbu musobaqada albatta har bir jamoa almashgan holda markazga chiqadi va bu chorak yoki semestr davomida o‘tkazilib, ballar qo‘shilib boradi. Yakunda jamoalarni o‘rniga qarab ragbatlar, sovg‘alar hamda jarimalar, jazolar berilishi mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28 yilligiga bag‘ishlangan bayram tabrigida “**Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi**», degan g‘oya asosida umummilliy ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga misli ko‘rilmagan e’tibor qaratilmoqda. Ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot, sport sohalarini rivojlantirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, yoshlarning, ayniqsa, qizlarimizning iste’dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish borasida ham ko‘p ishlar qilinmoqda. Bularning barchasi yurtimizda **Uchinchi Renessans** – milliy taraqqiyotimizning yangi davri poydevorini yaratishga xizmat qiladi”, – deya ta’kidladi.

Demak, biz ushbu ulkan maqsadga erishimiz uchun ta’limni sifatini oshirish, bunga har bir o‘qituvchi yetuk salohiyatlari bo‘lishi, o‘z fanini sevishi, ta’lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va texnologiyalarini mustahkam egallashi, xorijiy tillarni bilishi hamda rivojlangan davlatlarning ta’lim usullaridan xabardor bo‘lishi, bularidan milliyligimizga xoslarini keng tatbiq etishi, eng asosiysi o‘qituvchi yangilik yaratuvchi ijodkor bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Mirziyoyev Sh. M Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – Toshkent. O‘zbekiston. 2017
2. Mirziyoyev Sh. M Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28 yilligiga bag‘ishlangan bayram tabrigi
3. PF 4947-son “O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni. – Toshkent. 07. 02. 2017
4. 6-7-8 sinf Tarix darsliklari